



Problems arising in the collection of state duties by civil courts

Nargiza SULAYMONOVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

15 December 2023

Accepted 20 January 2024

Available online

15 February 2024

Keywords:

legal costs,
state duty,
collection,
material damage,
property disputes,
moral damage.

ABSTRACT

In connection with the increase in citizens' appeals to the courts in the context of the judicial reform being implemented in our country, some problems began to arise in regulating issues related to legal costs. In particular, there are problems associated with the collection of state duties, starting with going to court and making decisions based on the results of consideration of cases.

This article discusses the problems associated with paying state fees when applying to civil courts and suggests ways to eliminate such problems.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1/S-pp137-140>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Fuqarolik sudlari tomonidan davlat bojlarini undirishda yuzaga kelayotgan muammolar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sud xarajatlari,
davlat boji,
undirish,
moddiy zarar,
mulkiy nizolar,
ma'naviy zarar.

Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari sharoitida fuqarolarning sudlarga murojaati ko'payishi oqibatida sud xarajatlari bilan bog'liq masalalarni tartibga solishda ayrim muammolar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, aynan Fuqarolik sudlariga murojaat qilishda to'lanadigan davlat bojlari bilan bog'liq muammolar o'rganilib, bunday muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan.

¹ Teacher, Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law, Tashkent State University of Law.
E-mail: snm1188@mail.ru

Проблемы, возникающие при взыскании государственной пошлины гражданскими судами

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

судебные расходы,
государственная пошлина,
взыскание,
материальный ущерб,
имущественные споры,
моральный вред.

В связи с увеличением обращений граждан в суды в условиях реализуемой в нашей стране судебной реформы начали возникать некоторые проблемы в регулировании вопросов, связанных с судебными расходами. В частности, существуют проблемы, связанные со взысканием государственных пошлин, начиная с обращения в суд и принятия решения по итогам рассмотрения дел.

В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с уплатой государственной пошлины при обращении в гражданские суды, и предлагаются способы устранения подобных проблем.

Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash sud islohotlarining asosiy maqsadlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga ko'ra, sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish, sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarning sudga taalluqliligidan qat'i nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish, sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalarning hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish kerakligi ta'kidlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, yildan-yilga sudlarning roli oshib bormoqda, fuqarolarning ishonchini oqlash uchun ularga mas'uliyatli bo'lish yuklatilmoqda.

Mamlakatimizda odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Odil sudlovni amalga oshirish bevosita davlat byudjeti hisobidan ta'minlanadi. Bunda, sudlarga murojaat qilishda undiriladigan davlat boji to'lovlari davlat byudjetining muayyan qismini tashkil qilganligi bois davlat bojini to'g'ri belgilash va vaqtida undirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sudlarga ariza, da'vo ariza berishda hamda sud hujjatlariga nisbatan apellyatsiya, kassatsiya shikoyati berishda davlat boji miqdori, davlat bojidan ozod qilingan jismoniy va yuridik shaxslar ro'yxati, shuningdek, davlat bojini kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash va kamaytirish tartibi O'zbekiston Respublikasi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi normalari bilan belgilangan.

Aslini olganda sudya davlat boji miqdorini hisoblash va undirishni ta'minlashi lozim. Davlat bojini to'g'ri hisoblash o'z navbatida sudyadan amaldagi qonunlarni mukammal bilishni hamda to'g'ri qo'llashni talab etadi.

Amaldagi fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, sudlar tomonidan sud xarajatlari undiriladi. Bu kategoriya o'z navbatida ikki turga bo'linadi: birinchisi, davlat boji; ikkinchisi, ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlar.

Davlat boji bilan bog'liq masalalar juda keng qamrovli bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi va sudlarga to'lanadigan davlat bojlari miqdorlari belgilangan. Shu bilan birga, davlat bojidan ozod qilingan jismoniy va yuridik shaxslar ro'yxati, davlat bojini to'liq va qisman qaytarish asoslari keltirilgan. Ammo ushbu qonunni va amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksini o'rganishda va amaliyotda qo'llashda muammolar mavjudligini ko'rish mumkin.

Birinchidan, "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning ilovasiga asosan fuqarolik sudlariga murojaat qilganlik uchun davlat bojlari, davlat boji stavkalari miqdorlaridan kelib chiqib belgilangan. Birgina mulkiy xususiyatga ega da'vo arizalaridan da'vo bahosining 4 %i miqdorida, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda davlat boji undirilishi belgilangan. Mulkiy xususiyatga ega da'volarning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, fuqarolarga yetkazilgan har qanday zarar bo'yicha ya'ni moddiy zarar bo'yicha davlat bojlari aynan mana shu band bo'yicha mulkiy tusdagi da'vo arizalari bo'yicha davlat boji to'lanadi. Lekin, moddiy zararni tartibiy qismini faqatgina mulkiy xususiyatga ega da'volar tashkil etmaydi. Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra moddiy zarar degan tushunchaga ta'rif berilmagan. Bizning fikrimizcha, moddiy zarar deganda nafaqat mulkiy balki shaxsning sog'lig'iga yetkazilgan zarar bo'yicha qilingan xarajatlar ham kiradi. Ammo "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga asosan, moddiy zarar uchun qancha miqdorda davlat boji undirilishi belgilanmagan. Lekin sudga bunday talab bilan murojaat qilinsa, mulkiy xususiyatga ega da'vo arizasi sifatida baholanadi. Bundan kelib chiqib, "moddiy zarar" tushunchasiga ta'rif berish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga moddiy zarar uchun davlat boji stavkalarini belgilash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ma'naviy zararni undirish masalasida mazkur qonunda alohida band sifatida davlat boji stavkalari belgilanmagan. Ma'naviy zarar "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga ilovaning "E"bandiga ko'ra, turar joylar ijarasiga doir shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo arizalaridan, mol-mulkni xatlovdan chiqarish to'g'risidagi va mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan (yoki baholanmaydigan) boshqa da'vo arizalardan deyilgan bandiga ko'ra undiriladi. Bu jumlaning faqatgina oxirgisi ya'ni mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan (yoki baholanmaydigan) degan joyigina ma'naviy zararni undirish uchun asos bo'ladi. Vaholanki, ma'naviy zararni undirishni alohida band sifatida kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, fuqarolik sudlarida nomulkiy xususiyatga ega da'vo arizalari uchun BHMning 2 baravari miqdorida davlat boji undirilishi belgilangan bo'lsa, iqtisodiy sudlarda esa bu miqdor BHMning 10 baravarini tashkil qiladi. Endi muammoga kelsak, fuqarolik sudlariga shartnomalarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida murojaat qilinganida ham aynan yuqorida ko'rsatilgan talab bo'yicha ya'ni mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan (yoki baholanmaydigan) boshqa da'vo arizalardan degan bandi bo'yicha davlat boji to'lanadi. Xuddi shu Qonunga ko'ra iqtisodiy sudlarda esa "B" bandiga asosan

nomulkiy xususiyatga ega da'vo arizalardan bandi bo'yicha davlat boji undiriladi. Taklif sifatida fuqarolik sudlariga to'lanadigan davlat bojlarini o'zgartirish, ya'ni "nomulkiy xususiyatga ega da'vo arizalari" degan alohida bandni kiritish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, agar berilgan takliflar amaliyotda qo'llash uchun qonun normalariga kiritilsa, Fuqarolik sudlarida davlat bojini undirish bilan bog'liq ayrim muammolar bartaraf qilinar edi hamda sudlar tomonidan davlat bojlarini undirishda bir xillilik ta'minlanar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 14-sonli "Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz.
4. Sulaymonova N.M. Судебные расходы в гражданском процессе: сравнительный анализ России и Узбекистана // Журнал правовых исследований. – 2019. – №. SPECIAL.